



## OLIY TA’LIM YO‘NALISHLARI VA MUTAXASSISLIKLARI TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH MAQSADIDA BAKALAVRIYAT YO‘NALISHLARI HAMDA MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARI MIQDORINI MAQBULLASHTIRISH

**Shahlo MAHKAMOVA<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Byudjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti bo‘lim boshlig‘i, PhD.*

**Baxrom ABSAMATOV<sup>2</sup>**

*<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Byudjet va soliq tadqiqotlari instituti bosh mutaxassisi*

<b>KALIT SO‘ZLAR</b>	<b>ANNOTATSIYA</b>
Oliy ta’lim muassasasi, bakalavriat yo‘nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, xalqaro amaliyot, ta’lim standarti, muvofiqlashtirish	Maqolada oliy ta’lim muassasalari bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari tasnifini maqbullashtirishni nazarda tutgan holda xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilmiy xulosalar va tegishli takliflar berilgan.
<b>КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА</b>	<b>АННОТАЦИЯ</b>
Высшее учебное заведение, направления бакалавриата, специальности магистратуры, международная практика, образовательный стандарт, координация.	В статье приводятся научные выводы и актуальные предложения по оптимизации классификации направлений бакалавриата и специальностей магистратуры высших учебных заведений в соответствии с международной практикой, созданию системы подготовки квалифицированных кадров, которые внесут достойный вклад в устойчивое развитие социальной сферы и отраслей экономики, смогут найти свое место на рынке труда.
<b>KEY WORDS</b>	<b>ABSTRACT</b>
Bachelor’s degree courses, master’s degree specialties, international practice, educational standard, coordination.	This article presents scientific conclusions and relevant proposals for optimizing the classification of bachelor’s and master’s degrees in higher education institutions by coordinating international practice, creating a system of training highly qualified personnel that will make a worthy contribution to the sustainable development of the social sphere and economic sectors, and will be able to find its place in the labor market.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonining 1-ilovasi, 19-bandida [1] bakalavriatdagi ta’lim tizimini to‘liq qayta ko‘rib chiqish va mazmun jihatidan yaqin

bo‘lgan yo‘nalishlar birlashtirilib, zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish topshirig‘i berilgan.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim sohasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida qabul o‘rinlari soni 66



mingdan uch barobargacha oshirildi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib bormoqda.

Shunday bo‘lishiga qaramasdan oliy ta‘lim tizimidagi bugungi ta‘lim standartlari ma‘nan eskirgan, u o‘tgan davr mobaynida garchi 2-marta yangitdan qabul qilingan bo‘lsa-da, mehnat bozori va iqtisodiy sohalar emas, balki professor-o‘qituvchilar talabiga moslashgan, talabalar o‘z yo‘nalishiga daxldor bo‘lmagan fanlar bilan ham shug‘ullanishga majbur bo‘lmoqda, natijada oliy ma‘lumotli ishsizlar soni ortmoqda.

Shu bois, oliy ta‘lim muassasalarini xalqaro reytingda munosib o‘rin egallashini ta‘minlovchi mexanizmlarni tatqiq etish va tizimga joriy etish, oliy ta‘lim muassasalarini yangi avlod o‘quv adabiyotlari bilan ta‘minlash tizimini takomillashtirish, talabalar sonini oshirib borish, ta‘lim jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish munosabati bilan professor-o‘qituvchilar o‘quv yuklamasini belgilash va ta‘limni tashkil etishning zamonaviy shakllarini tatbiq etish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi qo‘yilgan.

O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan oliy ta‘lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish va o‘quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish hamda tutash

fanlarni tanlov fanlari ro‘yxatiga kiritish nazarda tutilgan.

**Mavjud muammolar.** Erishilgan ijobiy yutuqlar bilan birga yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar mavjud bo‘lib, O‘zbekistonda ishlab chiqilgan va joriy etilgan ta‘lim klassifikatorida ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining haddan tashqari ko‘pligi qator salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda. Oliy ta‘lim muassasalari manfaatlaridan kelib chiqib, ularning buyurtmasi asosida kadrlar tayyorlamoqda. Bunda oliy ta‘lim muassasalari manfaatlarini davlat va bitiruvchilarning shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘yishi holatlari mavjuddir. Masalan, anorchilik bo‘yicha malakaga ega bitiruvchiga umumiy agronomga talab borligi uchun ish topish muammo bo‘lishi mumkin. Yoki, talaba muayyan o‘quv yilida moliya ta‘lim yo‘nalishini tugatsa, shu yili talaba bitirgan hududda sug‘urta, bank, soliq va soliqqa tortish, kapital qo‘yilmalar tahlili yo‘nalishlarini tugatgan talabalar uchun ish mavjud bo‘lib, moliya yo‘nalishini tugatgan talabaga talab bo‘lmasligi mumkin. Lekin ish beruvchi bitiruvchini moliya yo‘nalishini tugatganligini iddao qilib, ishga qabul qilmaydi. Vaholanki, sug‘urta ham, bank ham, soliq va soliqqa tortish ham moliya sohasiga kiradi. Bu davlat yoki bitiruvchining shaxsiy byudjetiga juda katta zarar.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida (Yevropa, AQSh, Rossiya, Belarus va boshqalarda [3]) YUNESKO tomonidan qabul qilingan “Ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik sohalari

tasnifi (MSKO-O 2013)” xalqaro klassifikatoriga asosan atigi 80 ta bazaviy mutaxassislikni 29 ta ta’lim yo’nalishiga 11 ta ilmiy yo’nalish bo’yicha umumlashtirilgan[6]. O’z navbatida, Respublikamizda 645 ta magistratura mutaxassisliklari, 334 ta bakalvriyat yo’nalishlari va 10 ta ilmiy yo’nalish [2] mavjud bo’lib, mutaxassislarni tor doirada tayyorlanishi iqtisodiy nuqtayi nazardan davlat uchun oqilona emas va yangi zamon talablariga javob bermaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qilingan adabiyotlar sharhimiz va o’tkazgan ijtimoiy tadqiqotlarimiz natijasi (4, 5, 7) Davlat oliy ta’lim muassasalari bakalvriyat yo’nalishlari va magistratura mutaxassisliklari tasnifini maqbullashtirishni nazarda tutgan holda xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirishda quyidagi vazifalarini amalga oshirish maqsadga muvofiqligini aniqlab berdi:

- oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo’shadigan, mehnat bozorida o’z o’rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo’lga qo’yish;

- mazmun jihatdan bir-biriga yaqin mutaxassisliklarni birlashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- nomutaxassislik fanlar ulushini qisqartirish hisobiga bakalavr yo’nalishlari va magistratura mutaxassisliklari kvotalarini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- amaldagi oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorini xalqaro standartlarga moslash yuzasidan takliflarni ishlab chiqish va boshqalar.

Milliy ta’lim tizimlari tuzilishi va ta’lim dasturlarining mazmuni jihatidan xilma-xil bo’lganligi sababli, turli mamlakatlarning yutuqlarini taqqoslash va ularning milliy va xalqaro darajadagi maqsadlarga erishishini kuzatish qiyin bo’lishi mumkin. Bunda, “Ta’limning xalqaro standart tasnifini” (TXST) xalqaro miqyosda taqqoslanadigan ta’lim statistikasini to’plash, tahlil qilish uchun konseptual hujjat bo’lib, ta’limning xalqaro standart tasnifi xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy tasniflar tizimiga kiradi va ta’lim dasturlari, ta’lim darajalari hamda ta’lim sohalari bo’yicha tegishli malakalarni tartibga solish uchun qo’llanma hisoblanadi.

Ushbu qo’llanmaning maqsadi “TXST: ta’lim va kasbiy tayyorgarlik sohalari”ni qo’llash bo’yicha aniq ko’rsatmalar berishdir. Maqsadga bir qator mezonlarni belgilash, kasb-hunar ta’limi sohasida kiritilgan va chiqarib tashlangan fanlar ro’yxatini taqdim etish orqali erishiladi.

Standart xalqaro tasnifga ega bo’lish taqqoslanadigan ma’lumotlarni to’plashning birinchi bosqichidir. Ikkinchi bosqich – barcha mamlakatlarda yagona tasnifning qo’llanilishini ta’minlash. 2011-yilgi TXSTning so’nggi qayta ko’rib chiqilgan versiyasida asosiy e’tibor ta’lim dasturlari darajalariga tegishli o’zgarishlarga qaratilgan, shuningdek, birinchi marta malakaga asoslangan ta’lim darajalari

tasnifi taqdim etilgan. Birlashgan millatlar tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) tomonidan 2013-yilda ta'lim va kasbiy tayyorgarlik sohalarining qayta ko'rib chiqilib, yangilangan tasnifi qabul qilingan.

Ta'lim tizimlarining jahon darajasidagi jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning taqqoslanishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun mo'ljallangan konseptual hujjat – ta'limning xalqaro standart tasnifini (TXST) qo'llash orqali erishish mumkin.

Bugungi kunda, oliy ta'lim sohasidagi islohotlarning pirovard maqsadi zamon talabiga javob beradigan, o'z sohasining yetuk mutaxassislarini tayyorlashdan iborat. Shu talablardan kelib chiqib, oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlarga moslashtirish har qanday ta'lim muassasasi faoliyatining mazmunini tashkil qiladi.

Xalqaro standartlarga muvofiq eng yaxshi xorijiy amaliyotlarni hisobga olgan holda o'qitish, xodimlarga haq to'lash tizimini ularning malakasi asosida amalga oshirish, xodimlarda raqamli ko'nikmalarni tayyorlash, eng yangi texnologiyalarni biladigan boshqaruv xodimlarini tayyorlash, umumiy biznes tamoyillari va korporativ madaniyatni shakllantirish tizimining ustuvor yo'nalishlaridandir [2]. Har qanday ta'lim,

uning me'yoriy ta'minotini takomillashtirib borishni talab qiladi. So'nggi ikki yil davomida umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarining uyg'unligi va izchilligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini kredit – modul tizimiga o'tkazish mexanizmlari ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishning barcha bosqichlarida, shuningdek mamlakatimizning davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini qamrab oluvchi xalqaro munosabatlar amaliyotida, axborotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlash va ayirboshlash jarayonida:

- o'qishga qabul qilish va mutaxassislar tayyorlashni boshqarish;
- mutaxassislar tayyorlash va ularni ishga bandligining statistik hisoboti;
- O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar ta'lim statistikasini taqqoslash;
- O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining xalqaro ta'lim tuzilmasiga uyg'unlashuvi vazifalarini hal qilishda foydalanish mo'ljallangan.

Mamlakatimizda klassifikator – oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir. Unda quyidagi 10 ta bilim sohasi, 334 ta bakalavriat yo'nalishlari va 645 ta magistratura mutaxassisliklari nazarda tutilgan [3].

O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YIM), jami mehnat bozorida oliy ma'lumotli kadrlar soni, oliy ta'limga ajratilgan mablag'lar dinamikada asta-sekin oshib bormoqda (1-jadval). Bu ko'rsatkichlar 2024-yil 2020-yilga



nisbatan mos holda 1,9; 1,08; 3,46-marta oshishi kutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi faol tatbiq etila boshlandi. Oliy ta’lim sohasini rivojlantirish uchun konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslar mustahkamlandi.

Bugungi kunda respublikada oliy ta’lim muassasalari soni oshdi. Sohani erkinlashtirish natijasida nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari faoliyati kengaydi, va faol raqobat muhiti yuzaga keldi. Shunga mos ravishda oliy ta’limga qamrov 3 barobarga oshdi.

### 1-jadval

#### O‘zbekistonda YIM, jami mehnat bozoridagi oliy ma’lumotli kadrlar soni, oliy ta’limga ajratilgan mablag‘lar dinamikasi

Yillar	2020	2021	2022	2023	2024	2024/2020
YIM, mlrd so‘m	605 514,9	738 425,2	896 617,9	1 066 569,0	1 151 544,6	1,90
Temp, %	100	121,9	148,1	176,1	190,2	-
Jami mehnat bozoridagi oliy ma’lumotli kadrlar soni	2 517 651	2 575 557	2 613 191	2 672 685	2 727 675	1,08
Temp, %	100	102,3	103,8	106,2	108,3	-
Oliy ta’limga ajratilgan mablag‘, mlrd so‘m	1 670,1	2 289,7	3 338,7	4 968,3	5 783,1	3,46
Temp, %	100	137,1	199,9	297,5	346,3	-

\*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari

\*\* O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Iqtisodiy o‘rnatishni tahlil qilish va prognozlash hamda monetar, fiskal va tashqi savdo siyosatlarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash departamenti) ma’lumotlari.

\*\*\* Mualliflar bahosi.

**Takliflar** Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorini jahon amaliyoti va rivojlangan davlatlar tajribasini inobatga olgan holda qisqartirish va birlashtirish.

Uzluksiz ta’lim dasturida nazarda tutilgan fanlar va darsliklar normasini inobatga olib,

takrorlanuvchi darslardan voz kechgan holda umuman, o‘quv rejasidan chiqarish yoki soatlarini qisqartirish.

Oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik (mutaxassislikga muhimlik darajasi nisbatan pastroq bo‘lgan) fanlar hisobiga kamaytirish hamda tutashlikdagi

fanlar tanlov asosida o‘qitilishini amaliyotga joriy qilish.

Nazariyani amaliyot bilan yanada bog‘lash maqsadida bakalavr yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklar ixtisosligini inobatga olib ta‘lim davomiyligini qisqartirish yoki o‘sha davrda oylik ish haqi to‘lanadigan amaliyot bilan almashtirishni joriy qilish.

Ta‘lim yo‘nalishlarini optimallashtirish uchun har yili mehnat bozorini tadqiq etish, oliy ma‘lumotlilar orasidagi ishsizlik darajasini hisobga olib borish, ijtimoiy tadqiqotlar amalga oshirish. Chunki, oliy ma‘lumotli ishsizlar Rossiyada 4, Germaniyada 2 % bo‘lib, O‘zbekistonda 8 % dan yuqoriligi tadqiqotlarimiz natijasida aniqlangan [5].

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6811936>

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 26.07.2023-yildagi 327-son “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta‘limning Davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi buyrug‘i <https://lex.uz/docs/6581469> [01.03.2024]

3. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori <https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2021/11/OTM-Klassifikatori.pdf> [01.03.2024]

4. Зарубежный опыт механизма государственного финансирования высшего образования / Аналитический обзор. Институт бюджетно-налоговых исследований. – Ташкент, 2022. – 31 с.

5. Maxkamova Sh. Yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy istaklari monitoringi (nafaol (uyushmagan) yoshlar misolida) mavzusida tahliliy hisobot

6. PZ-20170928497 “Yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy istaklari monitoringi (maktab, kollej va litseylar bitiruvchilari hamda uyushmagan yoshlar misolida)” (loyiha rahbari Sh.Maxkamova) tadqiqoti doirasida tayyorlangan ma‘lumotlar asosida <https://www.imv.uz/> [29.01.2024].

7. Области образования и профессиональной подготовки 2013 (МСКО-2013). <https://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/iscde-fields-of-education-training-2013-ru.pdf> [01.03.2024].

8. Maxkamova Sh. Oliy ta‘limni davlat tomonidan moliyalashtirish mexanizmining xorijiy tajribasi // Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, 2022. – Toshkent. – №3. – В. 184-191. <https://ifmr.uz/journals/17> [01.03.2024].